

QUSHAYRIYNING TASAVVUFIY QARASHLARIDA RO‘YO VA TAMKIN HOLI

Qodirov Davronbek Hoshimovich

Buxoro davlat universiteti dotsenti

deviekhan@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘fiy va mutafakkir Abulqosim Qushayriyning so‘fiylardagi ro‘yo va tamkin hollari haqidagi falsafiy qarashlari yoritiladi. Shu bilan birga, mutasavvifning inson kamoloti yo‘lidagi transcendental holatlar borasidagi falsafiy qarashlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, hol, tush, tamkin, ro‘yo, poklik, sifat.

РУЪЯ И СОСТОЯНИЕ ТАМКИН В СУФИЙСКИХ ВЗГЛЯДАХ КУШАЙРИ

Кодиров Давронбек Хашимович

Бухарский государственный университет доцент

deviekhan@mail.ru

Аннотация: В данной статье освещены философские взгляды суфия и мыслителя Абул Касима Кушайри о состоянии руъя-видения и тамкин-сдержанности у суфиев. А также, анализируются философские взгляды мистика о трансцендентальных состояниях на пути совершенства человека.

Ключевые слова: суфизм, состояние, сон, тамкин, видение, чистота, качество.

RUYA AND THE STATE OF TAMKIN IN THE SUFI VIEWS OF KUSHAYRI

Kodirov Davronbek Khashimovich

Associate Professor at Bukhara State University

deviekhan@mail.ru

Annotation: This article highlights the philosophical views of the Sufi and thinker Abul Qasim Kushayri on the state of ruya-vision and tamkin-restraint among the Sufis. And also, the philosophical views of the mystic about transcendental states on the path of human perfection are analyzed.

Keywords: Sufism, condition, sleep, tamkin, vision, purity, quality.

KIRISH

Sharq Renessansining mashhur allomasi, islom tafakkurining yorqin namoyandasi, ko'pgina tasavvuf ta'limoti vakillarining ma'naviy ustozlaridan biri Abulqosim Abdulkarim Qushayriydir. Allomaning to'liq ismi Abdulkarim bin Havozin Abdulmalik bin Talxa bin Muhammad an-Naysaburiy Abulqosim al-Qushayriy an-Naysaburiy. Abulqosim Qushayriy asli xurosonlik bo'lib, 376 hijriy yilning rabi' ul-avval oyida (milodiy 986 yilning iyul oyida) Eronning shimoli-sharqida, Nishopurga yaqin joylashgan Ustuvo shahrida badavlat oilada tug'ilgan. Uning ajdodlari arab bo'lganlar. Ustuvo shahri toki XIII asrda mo'g'ullar istilosiga qadar xalifalikning sharqiy qismidagi eng boy madaniy markaz hisoblangan.

Qushayriyning nasl-nasabi Xuroson hududiga kelib qolib o'rtnashgan, asli arab bo'lgan Bani Qushayr qabilasiga borib taqaladi. Allomaning onasi arab qabilasi Bani Sulaymdan bo'lib, fozila ayol va ilm sohibasi edi.[1] Qushayriyning tog'asi Abu Oqil as-Sullamiy Ustuvo viloyatidagi bir qancha qishloqlarga egalik qilgan, shu bilan birga hadis ilmining taniqli bilimdoni ham bo'lgan. Aynan, uning tog'asi yoshligida birinchilardan bo'lib ilohiyot sohasida unga ustozlik qilgandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Mutafakkirning yoshligi haqida ma'lumot kam. Ma'lumki, u yoshligida Abulqosim Olimoniydan arab tili va fasohat, adab ilmlarini mukammal o'rgangan. [2] Shu bilan birga u jang san'at, ot minish va kamondan otishni o'zlashtirgan. Qushayriyning otasi yoshligida vafot etgani uchun u bolaligidanoq faqat ichki sezgisi va bilimiga tayangan holda mustaqil qaror qabul qilishga majbur bo'lgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qushayriy o'n besh yoshga to'lganida o'ziga qarashli bo'lgan qishloqdan olinadigan soliqlarni kamaytirish maqsadida hisob va xo'jalik yuritishni o'rganish uchun Xuroson poytaxti Nishopurga keladi. U chekka bir qishloqdan chiqqan o'smir bola bo'lganligi sabab o'sha davrdagi diniy-falsafiy fikr va oqimlardan yiroq edi. Shuning uchun Nishopurda har xil falsafiy, g'oyaviy va diniy qarashlarga ega bo'lgan turli maktablar hamda oqimlar tarafdorlaridan ta'sirlangan va kuchli taassurotdan, navqiron Qushayriy diniy va falsafiy ilmlarga qiziqishi

ortib, ularni o'rganishni boshlaydi. U 1001 yilda Abu Ali Daqqoq (1015 y.v.e.) asos solgan mashhur tasavvuf maktabiga qo'shilib, tasavvuf ilmidan ta'lim olishni boshlaydi. Yigitning iste'dodini ko'rgan Daqqoq unga ilm berishda e'tibor qaratadi. Qushayriy ustozining eng sevimli shogirdi va keyinchalik davomchisiga aylanadi. Abu Ali Daqqoq hatto shogirdini qizi Fotimaga (1001-1088 yy.) uylantiradi va Qushayriy uning kuyoviga aylanadi.[1]

TAHLIL VA NATIJALAR

Qushayriy ustozini Daqqoqning vafotidan so'ng uning maktabidagi so'fiylar majlisi – majlis ut-tazqirga rahbarlik qila boshlaydi. U madrasada dars berishdan tashqari haftaning ikki kunini kitob yozishga bag'ishlaydi.[3] Bundan buyon uning murshidi va ma'naviy ustozini Sullamiy bo'ladi. Abu Abdurrahmon Muhammad bin al-Husayn as-Sullamiy (942-1021yy.) Xuroson tasavvuf maktabining yirik vakili, ko'pgina mumtoz tasavvufiy asarlar, xususan, “Tabaqot us-sufiya” (So'fiylarning darajalari) agiografik asarning muallifi hisoblanadi. Biroq, mutafakkirning yangi murshidi Abu Ali Daqqoqning vafotidan bir yil o'tib bu dunyoni tark etadi. Shuning uchun ham Qushayriy umrining oxirigacha o'zining ma'naviy ustozini va murshidi deb birinchi ustozini biladi. Shunday qilib, Sullamiyning vafotidan so'ng Qushayriy Xurosonning eng ko'zga ko'ringan diniy arboblardan biriga aylanadi.

Qushayriy ustozining maktabini boshqarar ekan, 1019 yilda Qur'on Karimga “Latoif ul-ishorot fil-Qur'on” (Qur'ondagi nozik ishoralar) nomli katta tafsirini yozib tugatadi. Bu tafsir uning ulamolar orasida yanada olim sifatida obro'ining oshishiga va maktabining mashhur bo'lishiga sabab bo'ladi. Allomaning zamondoshi, shoir Abul-Hasan al-Boxarziy (1075 y.v.e.) uning ma'ruzalarida qatnashgach u haqda “Dumyat ul-qasr” (Saroy qo'g'irchog'i) shunday yozadi: “Agar u o'zining tanbeh beruvchi so'zlarining qamchisi bilan qoyalarni urganida edi, ular erib ketgan bo'lardi; agar Iblis uning xutbalarida eshitganida imon keltirib, haq dinni qabul qilgan bo'lar edi”. [4]

Qushayriyning tasavvuf falsafasiga doir mashhur asarlaridan biri “Tartib us-suluk fi tariq Alloh” so'fiylarga nasihat va yo'riqnoma tarzida yozilgan bo'lib, unda ro'yo hamda tamkin hollari to'g'risida irratsional falsafiy fikrlar aks etadi.

Mutafakkir ahli solihlarning ro'yosi ulardagi sof ong (safo ul-va'iy) ongsiz (lo-va'iy) holatdagi soflikka borib taqaladi va ularning ikkalasi ham oxirgacha davom etadi deb ta'kidlaydi. So'fiyning ongi Allohning zikri va uning qo'rquvi (xashiyyat) bilan to'lib, mushohada va kashf bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, unga kuchli intilish (tatallu') va istak (tashavvuq) bilan bog'lanib, ong ostiga (lo-shuur) kirib boradi va uni egallab oladi. Ma'lumki, insondagi ong osti (lo-shuur) esa faqat uyqu vaqtida faol bo'ladi.

Umuman olganda, asfiyolarda ruhiy hayot ong osti va hissiy kechinmalar bilan birga kamol topadi. Shu sabab ajabmaski, tush to'liq yoki qisman bo'lsa-da ro'yobga chiqadi va ro'yo karomatlardan biri hisoblanadi deydi alloma.

Qushayriy so'fiylarning ro'yosi haqligiga ishonib, bu ro'yo Qur'onda zikr qilingani bilan asoslaydi. Ro'yo payg'ambar s.a.v., sahobalar, tobeyinlar, tariqat mashoyixlari tomonidan xabar berilgan. Mutafakkir ro'yoni tarflashda ustozlari Daqqoq va o'zining tajribasiga tayanadi. Subkiyning Qushayriy bilan bog'liq bir voqeani keltiradi: Bir kuni Qushayriyning o'g'li og'ir betob bo'lib qoladi. U tushida Haqni ko'radi va unga shikoyat qiladi. Shunda Parvardigor unga shifo oyatlarini to'plab, uni o'g'liga o'qishini va ularni bir idishga o'qib dam solib, farzandiga ichirish kerakligini aytadi. Qushayriy tushida ko'rganidek qiladi va o'g'li kasallikdan tuzalib ketadi.[5]

Qushayriy "Uyqudagi ro'yo" (Ru'ya an-navm) degan bobda tushdagi Haqdan keladigan ro'yo ro'iy (ko'ruvchi)ga ezgu orzu-umiddan dalolat beradi. Zahabiyni keltirishicha, Ibn Ammod Hanbaliy Qushayriydan ushbu rivoyatni hikoya qiladi: "Abulqosim Qushayriy aytadi: Men tushimda Rabbim azza va jallani ko'rdim va u menga xitob qildi, men ham unga murojaat qildim. Shu asnoda Rabbim menga bir solih kishini uchratishimni aytdi va u bo'lg'usi Ahmad Saolibiy edi".[5]

Qushayriy ro'yo masalasiga qiziqishini Qur'ondagi ro'yo haqida tilga olingan oyatlarni tafsir qilganidan ham bilish mumkin. Qushayriy Yusuf surasini tafsir qilar ekan, uning ko'rgan ro'yosi afsuslanishiga sabab bo'lganligini, otasi tushini akalariga aytmashligi lozimligidan ogohlantirishiga qaramay ularga xabar

berganligini aytadi. Qur'onda bu haqda: "Tushingni akalaringga aytmagin" degan oyat keltiriladi (Yusuf 12:5). Shu bilan birga Misr malikining tushi Yusufning najot topishiga sabab bo'lgan: "Podshoh: Men tushimda yettita sigirni ko'rdim" (Yusuf, 12:43).

Xulosa qilib aytsak, Qushayriyning ro'yo masalasiga e'tibor qaratishi uning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq bo'lib, uning ruhiy tajribasidan va tadqiqotlaridan kelib chiqqan. Shu bilan birga mutafakkir so'fiylarning ro'yoga tayanishini e'tirof etgan.

Tamkin oriflar, avliyolar, muvahhidlar holi bo'lib, ma'rifat nuri aql, qalb va ruh bilan bog'lanadi. Qushayriy sirr us-sir va haqq ul-yaqin tushunchalarini kiritib, ularni shamning, chiroqning, to'lin oyning va quyoshning nurlari o'rtasidagi farqqa qiyoslaydi. Ulardan har birining nuri oldingisining nurini xiralashtiradi. Ya'ni nurlari boshqalariga nisbatan yorqinroq bo'ladi. Bunda quyosh hech qachon botmaydi va mutamakkin (mustahkam o'rnatilgan) banda doimo uning nurlarida cho'miladi. Bu davomiylik bandaning yer yuzida o'z rizqini qidirib yurishiga xalaqit bermaydi, chunki u ne'matlarni berguvchi Razzoq hisoblanadi.

Tamkin holidagi so'fiyga Xudodan boshqa biror kishi istirohati va uyqusiga xalaqit bera olmaydi, chunki ularning uyquasi ham uyg'oqlikdir. U yolg'iz xilvatda bo'lganida Haq bilan uning uchrashuvi va qayta tirilishi bo'ladi. Qushayriyning ta'biriga ko'ra, tamkin holidagi muhim narsa bu sirning tamoman sokinligi (sukun us-sir sukunan) bo'lib, uning sokinligiga qarab talvin sodir bo'lmaydi va banda keladigan manfaatlarni ko'rib ortga qaytmaydi. Uning holi ma'lum bir darajaga yetganda sobit qoladi. Bu xuddi suvning qaynash darajasiga o'xshaydi. Toza suv qanchalik olovda turmasin uning darajasi oshmaydi va bu daraja undagi qo'shimcha moddalarning miqdoriga qarab o'zgaradi.

Qushayriy nima demoqchi bo'lganligini uning risola oxirida keltirgan so'zlaridan bilish mumkin: "Bularning barchasi menda qaror topdi va yil davomida mening holim hissiyot quvvati (min quvvati-l-hiss) sababidan qaytmadi. Bu xuddi mening holimni ko'paytiradigan va ozaytiradigan narsa aks etmaganga o'xshardi".

XULOSA

Qushayriy talvin va tamkin hollarini risolasida qiyoslagan. Talvin Haq yo'lida bo'lgan ahvol kishilarining (arbob ul-ahvol) sifati bo'lib, ammo tamkin haqiqat ahlining (ahl ul-haqoiq) sifati hisoblanadi. Talvin sohiblari holdan holga ko'tarilib, bir sifatdan boshqa sifatga o'tadi. Bir bosqichdan (marhal) chiqib, boshqa bir maydonga (murabba') yetadi. Qachonki u vosil bo'lsa, ya'ni Haqiqatga erishsa, tamakkun sohibiga aylanadi. Tamakkun imkoniyat, kuch-quvvat va bir joyda mustahkam o'rinish degan ma'noni anglatadi.

Qushayriy bu bilan so'fiyning yuksak maqomda o'rinishini nazarda tutadi. Talvin sohibi doimo ortish holida bo'ladi, tamkin sohibi esa to'liq Haqqa erishgan bo'ladi. Shunday qilib, haqiqat ahli balo va ofatlarning ta'siridan xalos bo'lgan bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. محمد إبراهيم خليل، مرال هاشم جميل، الإمام القشيري حياته — نشأته العلمية، مجلة العلوم الاسلامية. صفحة 166-168.
2. ابن خلكان، وفيات الأعيان، صفحة 205
3. القشيري ومنهجه في التربية الدعوية، مجلة التربية، جامعة الازهر، الجزء الثالث، يناير لسنة 2015. 318-319 ص
4. Дроздов В.А. Абу-л-Касим ал-Кушайри и уего трактат о суфизме // Востоковедение. -№27. – Санкт-Петербург, 2006. - С.233.
5. القشيري. ترتيب السلوك في طريق الله. 104 ص